MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI TRANSPORT TIZIMIDAGI ASOSIY MUAMMOLARI

Buxoro Davlat Pedagogika instituti
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va
Iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi talabasi
Qudratova Gulsanam Ahadovna

Annotatsiya: Ushbu maqola Markaziy Osiyo davlatlarining (Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikiston) transport tizimidagi asosiy muammolarni tahlil qiladi. Markaziy Osiyo mintaqasining geostrategik ahamiyati, tranzit salohiyati va iqtisodiy rivojlanishi transport tizimining samarali faoliyatiga bog'liq. Maqolada transport infratuzilmasining holati, logistika xizmatlarining sifati, bojxona tartib-taomillari, transport xarajatlari, ekologik muammolar va mintaqaviy hamkorlikning yetarli emasligi kabi masalalar ko'rib chiqiladi.
Maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining transport tizimidagi mavjud muammolarning sabablari, oqibatlari va ularni hal etish yo'llari o'rganiladi. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, transport xarajatlarini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirishning ahamiyati asoslanadi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, transport tizimi, transport infratuzilmasi, logistika, bojxona, tranzit, transport xarajatlari, ekologiya, mintaqaviy hamkorlik, muammolar, rivojlanish.

KIRISH

Bugungi kunda tranzit va xalqaro tashuvlarni amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solish yuzasidan xalqaro amaliyotda hamda ilmiy doiralarda turlicha talqinlarning mavjudligi, mazkur sohaga oid asosiy tushunchalarni to‘g‘ri interpretatsiya qilish lozimligini belgilaydi. Aytish joizki, qayd etilgan talqinlarni barcha mintaqa uchun, xususan Markaziy Osiyo transport tizimi uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llab bo‘lmaydi. Chunki, boshqa mintaqalardagi (masalan, Yevropa Ittifoqida) transport sohasidagi munosabatlarda barcha transport turlari ishtirokini kuzatish mumkin. Markaziy Osiyo mintaqasida esa alohida tizim sifatida shakllanishi uchun shart-sharoitlar va zarurat asosan avtomobil va temir yo‘l transporti turlari uchun mavjud. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, «mintaqaviy transport tizimi» tushunchasini Markaziy Osiyoga nisbatan qo‘llaganda, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin: mintaqaviy transport tizimi bu – murakkab tizim turiga kirib, mintaqa davlatlarining umumiy manfaatlarni ko‘zlovchi, mustaqil boshqaruv tizimiga va

xususiy maqsadiga ega milliy transport tizimlarining (avtomobil va temir yo‘l tarmoqlari kesimida) o‘zaro muvofiqlashgan majmui hisoblanadi. Mazkur mintaqaviy tizimning mukammalligi hamda samarali faoliyati ushbu mintaqa davlatlari o‘rtasidagi transport sohasidagi hamkorlik darajasiga va uchinchi davlat uchun yaratilgan sharoitga bog‘liq.

Asosiy qism: Markaziy Osiyo davlatlari transport siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan hamda yyetakchi davlatlar, xalqaro tashkilotlar va turli dasturlar doirasida hamda alohida davlatlar tomonidan ilgari surilayotgan mintaqaviy muqobil transport koridorlari O‘zbekiston manfaatlari kesimida tasniflangan.

Ularni shartli ravishda quyidagi 3 guruhga ajratib o‘rganildi:

1. O‘zbekiston manfaatlariga to‘liq zid hisoblangan koridorlar: «Qozog‘iston-Turkmaniston-Eron» temir yo‘li; «TurkmanistonAfg‘oniston-Tojikiston» (TAT) temir yo‘li; «XitoyQirg‘izistonTojikiston» temir yo‘li; «Rossiya-Qozog‘istonQirg‘iziston-Tojikiston» temir yo‘li
2. Qisman foydalanish imkoni mavjud bo‘lgan koridor: «G‘arbiy Yevropa-G‘arbiy Xitoy» avtomagistrali.
3. O‘zbekiston manfaatlariga mos muqobil koridoralar: «O‘zbekistonQirg‘iziston-Xitoy» temir yo‘li; «O‘zbekiston-Turkmaniston-EronUmmon» koridori; «Toshkent-Andijon-O‘sh-Ergashtom-Qashg‘ar» avtomobil yo‘li; «O‘zbekiston-Afg‘oniston-EronG‘Pokiston» (Transafg‘on) temir yo‘li. Markaziy Osiyo davlatlari transport tizimi mintaqaviy integratsiya, tranzit salohiyatini oshirish va iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, transport infratuzilmasining eskirganligi, logistika xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, bojxona tartib-taomillarining murakkabligi, transport xarajatlarining yuqoriligi, ekologik muammolar va mintaqaviy hamkorlikning sustligi transport tizimining samarali faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlarining transport tizimidagi muammolarni hal etish mintaqaviy integratsiya, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va davlat siyosatini takomillashtirish orqali mumkin. Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, transport xarajatlarini kamaytirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish transport tizimining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kelgusida Markaziy Osiyo davlatlari transport tizimining rivojlanishi uchun quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

Mintaqaviy transport loyihalarida faol ishtirok etish.

- Transport sohasiga xususiy investitsiyalarni jalb qilish.
- Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish.
- Logistika xizmatlarini takomillashtirish.
- Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va raqamlashtirish.

- Ekologik toza transport vositalaridan foydalanishni rag'batlantirish.
- Mintaqaviy transport hamkorlikni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov, N. (2015). Logistika menejmenti. Toshkent: TDIU nashriyoti. (O‘zbekistonda logistika menejmenti masalalarini yorituvchi kitob).
2. Shamsiyev, T.S., & Xodiyev, B.A. (2018). Logistika. Toshkent: Iqtisod-Moliya. (O‘zbekistonda logistika asoslarini o‘rganish uchun qo‘llanma).
3. Transport xizmatlari qo’llanma